

ISHLAB CHIQRISHDA SHAXS VA MODDIYLIK OMILLARINING UYG'UNLIGI

Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17207530>

Ochiq bozorning rasmiy statistik ko'rsatkichlariga ro'yxatga olingan ishchi, kasb-hunar ta'limi markazlaridagi talabalar soni kiradi. Bularni muvofiqlashtirish ishlari to'g'ridan-to'g'ri ish beruvchilar bilan rasmiy suhbatlar asosida amalga oshirilishi, shuningdek, muayyan kasbni tanlash, o'qitish, malaka oshirish va ehtiyoj tug'ilgan yangi kasblarni egallashni mumkin bo'ladi.

Hufiyona iqtisodiyotni tarkibiga kiruvchi yashirin mehnat bozori, o'zining bandlik ta'minlangan darajasini saqlab qolgan, ammo u tez orada kelishuv shartlariga asosan, ishini yo'qotishi tahmini yuzaga kelgan ishchilarga ko'ra shakllantiriladi.

2. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti parametrlari darajasi bo'yicha G'arb va Sharq davlatlaridan muayyan darajada farqlanadi, lekin ularning bandlik va mehnat bozoriga oid siyosatidan ya'ni iqtisodiy modellar, mehnat va bandlik munosabat tamoyillari, ijtimoiy siyosatga oid strategiyalarni tanlashda xulosalar olishi tabiiy holat sanaladi.

3. O'zbekiston mehnat bozorini tartibga solishning eng muhim ko'rinishlari - tannarx, aholi iste'mol darajasi avvalo, deformatsiyalangan sharoitda shakllandi. Mamlakatda mehnat resurslari, ishlab chiqarishni moliyalashtirish darajasi va tartibining o'zgarishi, erkin raqobat sharoitiga o'tish, inflyatsiya kamayishi va shu kabi iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi, mehnat qadrlining uning tannarxidan yanada afzal ko'rish, bu esa bozor sharoitida o'z-o'zini tartiblash mexanizmi samarali ishlashiga olib keldi. Bu ayniqsa, aholi turmush darajasining ortishi bilan birgalikda ish joylariga bo'lgan talabni ko'tarilganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Buning natijasida, oxirgi yillarda mehnat munosabatlarida salohiyat "bosimi"ni ortayotganligini ko'rishimiz mumkin.

4. Mamlakatimizda mehnat munosabatlari ijtimoiy sheriklikning mustaqil ko'rinishida faoliyat olib boradi, lekin barcha bosqichlarni qamrab olmaydi. Bu mehnat bozorida turli sub'ekt manfaatlarini inobatga olib narx, ish haqi, daromadlar va soliq masalalarida integratsion siyosatni ishlab chiqishga halaqit bermoqda.

5. Mamlakatimizda mehnat bozorini mukammal tashkil etishda yangi islohotlarga ehtiyoj mavjud, ya'ni quyidagilarni nazarda tutuvchi infratuzilmalar yetarli emas:

a) mehnat munosabatlarida talab va taklif o'rtasidagi muayyan tafovutni qisqartirishda ish beruvchi va xodimning ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash va zaruriy ko'maklar berib borish;

b) ishsizlikning salbiy oqibatlariga qarshi psixologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy profilaktik choralarini tadbiq etish;

v) davlat idoralari, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy himoya tuzilmalari va ish beruvchilarning samara beruvchi yo'l xaritalarini ishlab chiqish, uni tadbiq etish;

d) barchaa hududlarda mehnat bozoridagi "yashirin" yoki "ochiq" ishsizlar sonini real aniqlash, shunga monand ravishda bartaraf etish strukturakarini ishlab chiqish.

6. Mehnat munosabatlarini shakllantirishda bir necha salbiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda:

a) tug'ilish darajasining ortib borishi hisobiga aholining tabiiy o'sishini ortishi;

b) aholining jins va yosh jihatidan tarkibning nomutanosib dinamikasi;

c) mehnatga yaroqli aholi qismiga demografik va iqtisodiy muammolar yukni ortib borish;
d) ijtimoiy rivojlanish dinamikasida yashash sharoitlarni haqiqiy hisobga olish va choralar ko'rish.

Zamonaviy mehnat bozori dialektik o'zaro ta'sirni, bandlik va ishsizlikning o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. "Inson faoliyati mehnatga bo'lgan munosabatni yashovchanlik va hayot ustqurmasi sifatida amal qilishini tasdiqlaydi, ruhiy tasalli obyekti sifatida shaxsning o'zini anglashiga, o'z kelajagini halol mehnat evaziga barpo etishga bo'lgan tanlovini hadya etadi"¹. Bu yerda tovar sifatida tushuniladigan ishchi kuchi doimiy ravishda yangilanib, yangi, yuqori darajada takror ishlab chiqarilishi kerak, bu esa mehnat bozoridagi raqobat bilan bog'liq.

"Bandlik" va "ishsizlik" hodisasi ishlab chiqarish munosabatlaridagi holat va jarayonni rivojlanishi yoki pasayish tendensiyasini ko'rsatib beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Shuningdek, bandlik ishlab chiqarishda shaxs va moddiylik omillarining uyg'unligini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui sifatida tushuniladi hamda ish bilan band bo'lgan aholi esa bu munosabatlarning ishtirokchilari hisoblanadilar. Bandlik bu — jamiyat hayoti va uning rivojlanish qonuniyatlariga hissa qo'shuvchi, mehnatga mos keluvchi, daromad keltiruvchi mehnatga bo'lgan munosabat mavjudligi tushuniladi.

Ishsizlik – bu iqtisodiy faol aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan ta'minlanganligini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Ishsizlikni tadqiq etish bo'yicha bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar va bu hozirda ham davom etmoqda. Ayniqsa, bu mavzu sotsiolog olimlarni ko'proq qiziqtiradi. Ishsizlikning sotsial oqibatlari hamda uni kamaytirish uchun amalga oshirilayotgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega. Ishsizlar bilan ishlash, muammoni hal qilishning sotsial-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, siyosiy jihatlar iqtisodchi olimlar tomonidan ham o'rganilgan.

Dunyo sanoatining rivojlanishi, texnologik taraqqiyot barcha davlatlarda ishsizlikni yosharishi va kengayishiga sabab bo'ldi. Sanoat korxonalari va ishlab chiqarishda ularni qo'llanilishi ish o'rinlarini qisqarishiga, hamda ishsizlikni ko'payishiga olib keldi. Bu jarayonlar inson omili bilan bog'liq ekanligi sababli, sohaga oid bir qator falsafiy tadqiqotlarni ham taqazo etmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qurbonova L.A. Inson, borliq va ijod. T., "Tafakkur". 2012 yil. B-107.
2. Davronov Z. Falsafa. T., "Iqtisod-moliya". 2006 yil. B.146.
3. Демин А.Н. "Факторы успешного и неуспешного поведения в ситуации безработицы". – Новосибирск : АО Наука РАН , 2002. – С.130.

¹ Qurbonova L.A. Inson, borliq va ijod. T., "Tafakkur". 2012 yil. B-107.